XALQ DEPUTATLARI XO‘JAOBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-12-110-1-27-K/25 Xo‘jaobod tumani

Xo‘jaobod tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105 son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 01/05/2-15-/2478-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Xo‘jaobod tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **110 035,4 mln.so‘m** va harajatlari esa **110 035,4 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Xo‘jaobod tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **479 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy

byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan harajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 498,2 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan harajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Oblanazarov), tuman soliq inspeksiyasi (S.Ibraximov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, harajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan harajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning harajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va harajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Xo‘jaobod tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi J.Pozilov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Mirzaolimov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **BOZORBOYEV JAMSHID RAFIQJON O‘G‘LI**

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-110-1-27-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognozi

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Summa
	JAMI	**110 035 370**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 542 500
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 248 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	36 465 000
4	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	439 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 013 000
6	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizasiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	2 644 400
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 987 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 820 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 243 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yyyer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	7 149 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 842 000
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	3 120 000
	Boshqa korxonalar	722 000

	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1 248 000
12	Davlat boji	2 117 200
13	Yig‘imlar	875 070
14	Jarimalar	1 441 600
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	64 000

Xalq deputatlari Xo‘jaobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-12-110-1-27-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Xo‘jaobod tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Harajatlar miqdori, jami		**110 035 370,0**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	36 144 101,0
	shundan:	
	"Mening maktabim"	2 101 200,0
2	Madaniyat bo‘limi	4 349 920
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 467 231
4	Sport bo‘limi	6 612 617
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 691 331
6	Veterinariya bo‘limi	1 557 044
7	Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazlari	537 640
8	Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	262 542
9	Irrigatsiya bo‘limi	2 150 125
10	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash harajatlari	2 021 588
11	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari harajatlari	146 400
12	Hokimiyat	33 515 530
	shundan:	
	Madaniyat bo‘limi	*113 641*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 362 568*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*1 025 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 498 164*

13	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	893 504
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash harajatlari	*138 215*
	Axborot-kutubxona markazlari	*755 289*
14	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	15 685 797